

## TASVRIY SAN'AT FANIGA YANGI KIRITILGAN MAVZULARNI O'QITISH USULLARI

**Eshnazarova Mazifa Allanazarovna**

Qashqadaryo viloyati PYMO'MM

Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola tasviriy san'at darslariga yangi kiritilgan mavzularni o'qitishda yangicha yondoshuv usullari haqida bo'lib umumiyoq o'rta ta'lim maktab tasviriy san'at o'qituvchilari yaqindan yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** zentangli, doodling, flyud art, pop art, kollaj texnikasi, strit art, 3d, foto kompozitsiya, kviling va shriftli kompozitsiya

### **Annotation**

This article is about new approaches to the teaching of newly introduced subjects in art classes, which will be closely supported by art teachers of general secondary schools.

**Keywords:** zentangli, doodling, fluid art, pop art, collage technique, street art, 3d, photo composition, quilling and font composition

O'quvchilarining ma'naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg'unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o'stirish, ijodkorlikni rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tadbiq etishga o'rgatish amaliy fanlar blok-moduli orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, o'quvchilarini ma'naviy, badiiy, ahloqiy, grafik madaniyatini rivojlantirib, ijodiy mahorat, badiiy-estetik didini o'stirishda, kasb-hunarga

yo‘naltirish bilan birga, jismonan baquvvat bo‘lib, sog‘lom turmush tarziga amal qilishga o‘rgatish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, harbiy xizmatga tayyorlash, hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish amaliy fanlar tarkibida olib boriladi.

Yuqori texnikaviy-texnologik innovatsiyalar, ma’lumotlar oqimining o‘sib borishi hayotning barcha jabhalarida to‘rtinchi texnologik inqilobni yuzaga keltirmoqda. Shaxsning qiziqishlari va jamiyatning talablari o‘zgarmoqda. Kundalik hayotni ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta’limning integrativ yondashuvini STEAM ta’limi joriy etadi.<sup>1</sup>

Tasviriy san’at faniga yangi kiritilgan mavzular zentangli, dodling, flyud art, pop art, kollaj texnikasi, striit art, 3d, foto kompozitsiya, kviling va shriftli kompozitsiya kabilardir. Bu san’at turlarida ishlash xorij mamlakatlarid ancha ilgarilab ketgan bo‘lib, ayni paytda bu san’at turlariga talab yuqori. Tasviriy san’at darslarida yangi kiritilgan mavzularni o‘qitshda quyi sinflarda o‘tilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar davomiyligi bo‘lib, olgan bilimlar asosida amalga oshiriladi.

Misol uchun kollaj texnikasi kompozitsiya ishlashda rangli qog‘oz parchalari ya’ni jurnal va kataloglar rangli suratlaridan foydalangan holda ishlanadi. Kerakli kompozitsiya qalamda chizib olingach, rangli qog‘ozlarda kerakli hajmda rangli qog‘oz parchalari ajratib olinadi va chizilgan kompozitsiyaga qog‘oz yelim bilan yopishtiriladi. Buning uchun o‘quvchi rangshunoslik nazariyasi va rangtasvida amaliy ishlar ishlagan bo‘ishi kerak. rangtasvida akvarel yoki guashda mazok usuida rangtasvir ishslash usuli bor. Rangli qog‘oz bilan ishlaganda aynan bo‘yoyoqlarsiz ham turli materiallar bilan rangtasvir ishslash mumkinligi haqida tushunchaga ega bo‘ladi.

Kollaj (ot fransuzcha collage — yopishtirmoq) — tasviriy san’atda tasvir hosil qilish texnikalaridan biri bo‘lib, fakturasi va rangi ajralib turuvchi biror bir yuzaga material parchalarini yopishtirish orqali rangtasvir va grafik asarlar yaratiladi. Har qanday kollajda aplikatsiya texnikasi qo‘llaniladi.

---

<sup>1</sup> <sup>1</sup>Tasviriy san’at va chizmachilik Milliy o‘quv dasturi

Fluid-art suyuqlik bilan ishlanadigan tasvir bo‘lib, bu texnikada ishlashning mohiyati uning nomi bilan bog‘liq. Idishga turli xil rang va shakldagi bo‘yoqlarni quyish orqali siz tasavvurni hayratda qoldiradigan noyob tasvirga ega bo‘lasiz. Suyuq akril - mavhum rasmning zamonaviy shakli bo‘lib, bo‘yoq xolst (pano) bo‘ylab oqadi va rang effektlarini yaratadi. Tasvir hosil qilish uchun avvalo tasavvur qilish lozim. Misol uchun “Koinot”, “Dengiz qirg‘oqlari”, “Kuz manzarasi”, “Bahor” kabi mavzularda tasvir yaratish uchun tasavvurdagi ranglar tayyorlab olinadi. Bunda albatda o‘quvchi axromatik va xromatik ranglar, asosiy va hosila ranglar, issiq va sovuq ranglar, kontrast ranglar, ranglar garmoniyasi haqida tushunchaga ega bo‘lishi lozim. Flyud art texnikasida ishlashda yana turli materiallar bilan ham tasvirlar hosil qilish mumkin, misol uchun shar, vilka, fen va boshqa narsalar bo‘lishi mumkin.



Suyuq akril texnikasi uzoq vaqtдан beri rassomlar va interyer dizaynerlarining qalbini zabt etdi.



Ish texnologiyasi juda oddiy va maxsus badiiy mahorat talab qilmaydi. Suyuq san’at texnikasida akril quyish yo‘li bilan qo‘llaniladi va naqshlar va toshmalar aslida o‘z-o‘zidan yaratiladi. Bunday ishda asosiy narsa uyg‘un ranglarni tanlashdir.

Bizning ishimizda dengiz mavzusidagi ranglar qo‘llaniladi.

Asosiy rang - oq. U ko‘k, och ko‘k, firuza va och Yer ranglarini birlashtiradi.

Suyuq akril yoki suyuq san’at texnikasida bo‘yoqlarning mustahkamligi juda muhimdir. Aksincha, u fermentlangan pishirilgan sutga o‘xshash bo‘lishi kerak: suyuq bo‘yoq xolstga quyiladi, lekin tarqalishda rang chegaralarini saqlab turishga qodir. Flyud art texnikasida ishlashda tayyor podryamnikga tortilgan xolstga ishlashimiz mumkin.

Shuning uchun, davom ettirishdan oldin, biz akril bo‘yoqlarni suv bilan ozgina suyultirib olamiz. Biroq, eritmaning quyuqligiga e’tibor berish kerak, chunki bo‘yoqni suyultirish oson, quyuqligini saqlashimiz kerak bo‘ladi. Biz o‘rtacha quyuqlikdagi bo‘yog‘imizni podryamnika tortilgan xolstga quyamiz, sirtni akril bo‘yoq bilan yopamiz va buyoqlarni qo‘srimcha o‘zgartirishlar kiritamiz. Qo‘srimcha o‘zgartirishlar kiritishda turli materiallardan foydalanish mumkin. Masalan: kistochka, vilka, gupka, tayoqchalar. Qo‘srimcha o‘zgartirish bu, biz yaratishimiz lozim bo‘lgan tasvir, ya’ni abstract tasvirlardir. Suyuq akril san’ati issiq skovorodkadagi sariyog‘ kabi sirtga tarqaladi: bu juda oson va qiziqarli!

Suyuq bo‘yoqda abstract tasvirlar ishlash uchun asosan xolstga ishlaymiz. Imkoniyadan kelib chiqib boshqa materialni ham ishlash uchun gruntovka qilib tayyorlab olishingiz mumkin. masalan faner, taxta, bo‘z matosini podryamnika tortib voda emulsiya bilan gruntovka qilish.

Boshqa san’at turlari kabi tasviriy san’atda yangi usullar paydo bo‘lib, uning yangi qiralari ochilmoqda. Ba’zi rassomlar chizish uchun shunchaki kistochka va bo‘yoqlarga ehtiyoj sezmaydilar va turli materiallar bilan tajribalarida oldinga boradilar.

Barmoqchalar usulida rasm ishlash texnikasi.

Kerakli asboblar: Bo‘yoqlar, qo‘goz, suv

Afzalligi: o‘quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish, mayda barmoqchalar motorikasini, rang-tasvirlarni anglash va ifodalash mexanizmlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ba’zi rassomlar chizish uchun shunchaki kistochka va bo‘yoqlarga ehtiyoj sezmaydilar va turli materiallar bilan tajribalarida oldinga boradilar.

Sham bilan rasm chizish usuli.

Kerakli asboblar: Bo‘yoqlar, qo‘g‘oz, suv, sham.

Afzalligi: sham bilan chizish orqali o‘quvchining layoqatlarini rivojlantirish mumkin. Sham bilan ishlash bolaning ruhiy-psixologik va ma’naviy-badiiy tasavvurlarini o‘stirish mumkin.

Shar bilan rasm chizish usuli.

Avzalligi: Ijodiylikni rivojlantirishda ushu usul yordam berib, kreativ fikrlashini shakllantiradi. Bola ongida “Evrika!” – “men buni bilib oldim” degan vaziyat tug‘ilishi shart. Shu bois, o‘qituvchi mana shu ta’lim harakatida o‘quvchiga yo‘ldosh bo‘lib boradi. O‘qituvchi aslida mana shu evristik jarayon tashkilotchisi bo‘lmog‘i darkor.



Qahva bilan rasm chizish usuli. Kerakli asboblar: Qahva, qo‘goz, suv, kistochka.

Afzalligi: Grizayl usulida rasm ishlashga o‘xshashligi bilan va bolada aynan bo‘yoqlarsiz ham rasm ishlash texnikasiga qiziqishi oshadi.

– Kvilling (ingl. quilling; quill – “qush pati” so‘zidan olingan) qog‘ozni eshish yo‘li bilan nafis shakllar – eshilgan uzun va ensiz qog‘oz tasmalaridan yassi va hajmli kompozitsiyalar yasash san’ati sifatida mashhur. Bunda qog‘oz spiralsimon bo‘lib qoladi va uni o‘zgartirish bilan boshqa har xil shakllar hosil qilish mumkin. Qog‘ozning ikkala tomoni ham rangli bo‘lishi lozim.

“Zentangle” (inglizcha “zentangle”) nomining o‘zi ikkita so‘zdan iborat: “zen” (“zen”) va “chalkashlik” (“pleksus, chalkashlik”). Zentangle - bu bir vaqtning o‘zida bir nechta yo‘nalishlarni birlashtirgan yangi san’at turi, bu ijodkorlik, meditatsiya, zavqlanish va mustaqil ish sifatida qimmatli yoki deyarli har qanday naqshni bezatadigan original chizmalarni yaratish usuli. Tasvirning shakli to‘rtburchak bilan cheklangan va juda ko‘p turli xil naqshlar mavjud. Zentangles yaratish jarayoni zentangling deb ataladi.

zentangle naqshlari mavhum, ma’nosiz bo‘lishi kerak;

zentangle bitta yo‘nalishga ega emas, uni har qanday tomondan ko‘rish mumkin;

zentangle qora va oq rangda bajariladi;

har bir burchakli naqsh oltita zarbadan ko‘p bo‘lmasligi kerak;

zentangle chizish paytida chizg‘ich yoki shablondan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi;

Shriftli kompozitsiya -Harflar yordamida so‘z ma’nosini anglatuvchi obraz yaratish

Matn va tasvir uyg‘unligidagi kalligramma yaratish.

Shriftli illyustratsiya yaratish. Shriftli kompozitsiya yaratish ham o‘quvchilar uchun juda qiziqarli.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, Tasviriy san’at darsligiga yangi kiritilgan mavzular hozirgi kunda horij tasviriy san’atida oldinda borayotgan usul va texnologiyalar bo‘lib, bu usullarda rasm shlash o‘quvchilar ijodkorligini oshiradi, mustaqil amaliy faoliyatga yo‘naltiradi, kreativ fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Yangi axborotlar izlash ko‘nikmasi rivojlanadi, turli materiallar bilan ham san’at asari yaratish mumkinligini tushinishadi. Yangi kiritilgan mavzularda ishlashda o‘qituvchi o‘quvchiga yo‘ldosh bo‘lib borishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Tasviriy san’at va chizmachilik Milliy o‘quv dasturi.
2. Jabborov E. Kompozitsiya. Qarshi. “Fan va ta’lim” nashriyoti. 2020.
3. Abdurasilov S.F. “Tasiriy san’at o‘qitish metodikasi” Toshkent-2012 .
4. Xasanov R. Tasviriy san’at asoslari.Toshkent. 2009.

